

MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Karatayeva Maksuda Abduvaliyevna

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 36-maktab psixologi

Olimlar psixologik xizmatni yanada rivojlantirish uchun turlicha metodlar va metodologiyalarni yaratib kelmoqdalar. K.K.Platonovning psixologik xizmat bilan bog'liq ijtimoiy psixologiya metodologiyasini yaratishdagi xizmati shundaki, ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik xizmat mohiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo'lgan shaxsni nafaqat o'zining, balki bu individual xususiyatlarining ijtimoiy mazmuni o'zini-o'zi adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish bilan kamol toptirish muqarrarligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Professorlar E.G'oziyev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor berish zarurligi uqtiriladi: -inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omilari); -insonning o'ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari. ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi. Darhaqiqat har bir insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab urgan jamiyat istiqbollari mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o'rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falasafasi ham shuni taqozo etmoqda. Psixologik xizmatning asosiy vazifasi-tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashviqot ishlridan iborat 3 ta vazifadan tashkil topadi.

Ilmiy tadqiqot vazifalari - o'quvchilar shaxsning shakllantirishning muhim muammolarini, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini o'quvchilar bilan o'qituvchilar, maktab psixologlari, maktab psixologlar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hamda maktab psixologning etikasini o'z ichiga oladi.

Kichik maktab yoshida insonning maqsadli yo'nalishi ta'lim va tarbiyasi amalga oshiriladi. Xuddi shu yosh psixik jarayonlarning ixtiyoriyligi, harakatning ichki rejasi, faol aqliy faoliyatga ehtiyoj, o'quv ko'nikma va malakalarini egallash uchun juda qulay yoki senzitiv yosh hisoblanadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda,

kichik maktab yoshining oxiriga kelib bola o'qiy olishi va o'qishni istashi kerak. Ta'limning keyingi bosqichlarida vujudga keladigan barcha muammolar (o'zlashtira olmaslik, maktabga borishni istamaslik) yoki bolaning o'qiy olmasligiga yoki bolaning o'qiy olmasligiga yoki o'qishga qiziqmas bo'lganligiga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarning oxirida u yoki predmetga qiziqish borliqqa, bilish jarayonlariga faol munosabatini belgilaydi. Faqat bir predmetga chuqur qiziqish ham o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga turtki bo'ladi. Agar boshlang'ich sinflarda o'qishga qiziqish shakllantirilmagan bo'lsa, undan keyingi yosh davrlarida bu juda qiyin bo'ladi, ikkinchidandan yetarli darajada shakllantirilmagan o'quv faoliyati o'smirlik davrida yangi tuzilmalarning paydo bo'lishiga to'siq bo'ladi.

Maxsus o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan yorqin individual farqlarni ko'rish mumkin. Bu ular o'quv faoliyatida ko'zga tashlanadi. o'quv faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy va maxsus qobiliyatlari birinchi o'rinda turadi. SHunday qilib, maxsus qobiliyatlarni o'quvchilar individual farqlarning asosi sifatida qarab, o'quv – tarbiya ishlarida ularni hisobga olish zarur. o'quvchilarning shaxsiy va psixik rivojlanishida umumiy maxsus qobiliyatlar muhim omil hisoblanadi. O'quvchi qiziqishlari va qobiliyatlarini anglashi, ularning qanchalik rivojlanganligidan qat'iy nazar umuman shaxsning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning rivojlanishi uchun qulay psixologik iqlim yaratish ham psixologik xizmat mahsuldorligining omillaridan biridir. Bunday yaratishda bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqati muhim hisoblanadi. O'smirlarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti ular shaxsining shakllanishida muxim omil hisoblanadi. Muloqotdagi muvaffaqiyatsizlik, shunday ichki noqulaylikka, o'zini yomon his qilishga olib keladi-ki, uning o'rnini hayotning boshqa sohalaridagi hech qanday ko'rsatkichlar bosa olmaydi. Muloqot o'smirlar tomonidan muhim jarayon sifatida qabul qilinadi; bu haqida ular muloqot shakllariga e'tibor berishni, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilishlarini, ularni tushunishga urinishlarini misol qilib keltirish mumkin. O'smirde xuddi shu tengdoshlari bilan muloqotda shaxs ijtimoiy yetukligining muhim ko'rsatkichi bo'lmish qadriyatlar shakllana boshlaydi.

Ularda asosan muloqot - qadriyatlar mazmunini belgilaydi. Bu yosh tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishga intilish, o'zini va suhbatdoshini yaxshiroq bilishga intilish, atrof muhitni bilish kabi muloqot motivlari jamoa tomonidan tan olinishi, o'ziga ishonish, xatti - harakatlarining mustahkamligi va yuksak umumiy madaniyat, o'z fikriga ega bo'lish, mustahkam iroda, o'z-o'zini nazorat qilish, halollik, ko'ngilchanlik kabi qadriyatlar sistemasining yuzaga kelishiga sabab

bo'ladi. U yoki bu sababga ko'ra tengdoshlari bilan muloqot shakllanmagan o'smirda yoshiga nisbatan shaxsning taraqqiyotida orqada qolish kuzatiladi, o'smir shaxsining shakllanishida tengdoshlari bilan muloqotning rolini kamaytirmagan holda, ba'zan bu muloqotga katta ahamiyat berilishi ta'kidlash joiz. Tengdoshlari bilan muloqotlilik – ontogenezning barcha bosqichlarida bolaning shaxsiy va psixik rivojlanishida muhim hisoblanadi, lekin bola «normal», axloqan tarbiyalangan katta kishilar bilan muloqotda bo'lgandagina u o'z funksiyasini bajaradi. Xuddi shu kattalar bilan muloqotda tengdoshlari orasida shakllangan qadriyatlarni tushunish va nazorat qilish ro'y beradi. Xuddi shu kattalar bilan muloqotda jamiyat uchun xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni va qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smirlik va o'spirinlik davrida kattalar bilan norasmiy ishonchga asoslangan muloqotga ehtiyoj bu davrda paydo bo'lgan yangi psixologik tuzilmalardan biridir.

Hozirgi maktablarda o'quvchilarning kattalar, tengdoshlari bilan to'liq muomala muloqotni ta'minlaydigan psixologik sharoitlar yaratilmagan. SHu sababli o'quvchilarda maktabga, o'qishga salbiy munosabat, o'ziga, atrofdagi kishilarga nisbatan noto'g'ri munosabat shakllanadi. Bunday sharoitda shaxsning rivojlanishi va unga mahsuldor ta'lim berish mumkin bo'lmay qoladi. SHuning uchun ham qulay psixologik iqlim yaratish, o'quvchilar va kattalar o'rtasida qiziqarli muloqot uchun imkoniyat yaratishga amaliyotchi psixologlar, sinf rahbarlari, o'qituvchilar, ota-onalar intilishlari lozim. Psixologik tashviqot ishlari teleko'rsatuv va radioda chiqish, yakkama-yakka maslahatlar tashkil etish, muloqot treninglari uyushtirishdan iboratdir. Psixologik xizmatning uchchala vazifasi o'zaro chambarchas bog'liq, ularning birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Maktabdagi psixologik xizmat - quyidagi tartib va darajaga egadir:

1. Yuqori darajada – psixologik xizmat vazifalarini aniqlash, uning xujjatlarini tartibga keltirish Respublika xalq ta'limi Vazirligi qoshidagi psixologik xizmat markazining buyurtmasiga binoan yuqori malakali psixologlar (pedagogika institutlarida universitetlarining psixologiya kafedralari) tomonidan amalga oshiriladi.

2. O'rta darajada – mazkur xujjatlar tomonidan hali hisobga olinmagan yangi masalalarini amaliy ravishda hal etish - psixolog mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Asosiy ommaviy darajada – psixologik xizmatning kundalik vazifalarini amalga psixologik xizmat haqidagi qonun va qoidalarga binoan psixologik jihatini to'g'ri hal qilish. Bu ish amaliyotchi psixologlar (maktab psixologi), viloyat xalq boshqarmasi qoshidagi psixologik xizmat bo'limlari, shahar xalq ta'lim bo'limlari qoshidagi psixologik xizmat (bo'limlar) xonalari, maktab, maktabgacha tarbiya

muassalari, kasb hunar kollejaridagi amaliyotchi psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

Maktab psixologi maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi (pedagogika institutlarining amaliyotchi psixologlar tayyorlaydigan maxsus kurslarini, universitet va institutlarning psixologiya fakultetlarini bitirgan) bo'lishlari kerak.

Amaliy vazifalar - psixologik tadqiqotni natijalarini amalda psixologik xizmat ishida qo'llab, bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash, o'quvchilarning o'qish faoliyatini osonlashtirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama kamon toptirish, o'quvchilarning qobiliyat va moyilliklarini aniqlash va rivojlantirish, talabalar bilan hunarga, kasbga oid suhbat, maslahat ishlarini olib borish, turli xildagi «qiyin» bolalar bilan ish olib borish kabi asosiy vazifani hal qilishdan iboratdir.

Tashviqot ishlari – psixologik bilimlarni, psixologik umumta'lim tashviq qilib, o'quvchilarning psixologik bilimlarini oshirish, ota-onalar uchun seminarlar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, anjumanlar o'tkazishdan iborat.

So'ngi yillarda jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rganishga alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgacha psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilishi, ijtimoiy psixologik xizmat va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi zamonaviy psixologik mexanizmlarni qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borilayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy – uslubiy ishlar psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Ayni paytda psixologik xizmat tizimining bugungi holati va amaliy faoliyat yo'nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun mamlakatimizda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini o'rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag'ishlangan psixologik va ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning olib borilishi davr taqozosidir. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida bo'lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog'liq psixologik tadqiqotlarning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning sust ekanligi, ijtimoiy psixologiya, psixologik

konsultatsiya fanlarining zamonaviy yo'nalishlari fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va batafsil belgilanmaganligini, ta'lim va mehnat muassasalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida o'quvchi va ishchi xodimlar muvaffaqiyatli –faoliyatni ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o'rganish va kamol toptirish bilan bog'liq bugungi O'zbekistonning o'z istiqbol va istiqbol yo'li, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi kunda dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin. Psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni G.M.Andreeva, M.G.Davletshin, Yu.M.Zabrodin, D.Karnegi, V.M.Karimova, B.D.Parigin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalar olib borishgan.

Bugungi psixologiya-fani ta va ijtimoiy taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim.

Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ'ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi. 1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari hukmron bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o'ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi. Chunki maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib, O'zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmas ekan. Shunga muvofiq dastavval Toshkentda, so'ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta'lim maktablari uchun "Amaliyotchi-psixologlar" mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi,

targ'ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar. Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi. Insonlar o'z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A Biznining bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: "O'zbekiston", 2005. 96-bet.

2. G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007. 1-2-kitob.

3. Эшмурадов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012>

4. Эшмурадов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.

5. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).

6. Эшмурадов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари // Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.

7. Эшмурадов, О. Э. (2021). Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1082-1085.

8. Elamanovich, O. E. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Archive of Conferences*, 1-7.

